

**KO'HITANG BOTANIK GEOGRAFIK RAYYONIDA
TARQALGAN ROSA L. TURKUM TURLARI**

A.J.Ibragimov¹, K.O'.Atoyev² N.P.Rajapova²

1. *Termiz Davlat universiteti Botanika kafedrasи dotsenti.*

2. *Termiz Davlat universiteti talabasi.*


akram_i@bk.ru

Annotatsiya. *Rosa L.* turkumi Tog'li O'rta Osiyo va Eron-Turon floralarida alohida o'rnlardan birini egallaydi. *Rosa L.* turkum turlari *Rosaceae* Juss. oilasiga kiruvchi yetakchi turkumlardan biri bo'lib Ko'hitang florasida alohida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ushbu oilaning hozirgi kunda yer yuzida 104 turkumga mansub 4828 turi uchraydi. *Rosa L.* turkumini esa 366 ta turi tarqalgan. *Rosa L.* turkumini O'rta Osiyoda 39 dan ortiq, [1] O'zbekistonda esa 21 dan ortiq turlari tarqalgan [2]. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar va Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalarni tahlil qilish natijasida mazkur florada turkumning 24 ta turi uchrashi ma'lum bo'ldi. Oxirgi izlanishlar natijasida Ko'hitang botanik geografik rayyonida turkumning 9 ta turi tarqalganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *Rosa L.*, turkumi, ko'hitang, oila, flora, tog', adir, turkum, tur, qo'riqxona, yaylov.

Ko'hitang botanik-geografik rayoni shimoldan Janubi-G'arbiy Hisor okruginining Tarqopchig'ay, sharqi va janubidan Surxon-Sherobod, hamda g'arbidan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lib, taksonomik xilma-xillikning yuqoriligi, kamyob, endem hamda relikt turlarga boyligi bilan ajralib turadi [4].

Ko'hitang botanik-geografik rayonida S.A. Nevskiy [5], F.O. Xasanov [6] va A.J. Ibragimovlar [7] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va gerbariy namunalari yig'ilgan. Mazkur gerbariy ma'lumotlari hudud florasini shakllantirishda asos bo'lgan desak bo'ladi. Mazkur tadqiqotlar hududi florasi shakllantirishda katta yordam berdi ammo, hudud florasi to'g'risida yaxlit ma'lumot bermaydi. Ya'ni, ilmiy izlanishlarga bog'liq gerbariy namunalari hududning ma'lum bir qismi yoki hududlari bo'yicha mavjud. Bu esa mazkur rayon hududida aniq maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borishga zarurat ortishi hamda ishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida takidlaganimizdek Ko'hitang botanik geografik rayyonida *Rosa L.* turkumining 9 ta turi tarqalgani bizga ma'lum.



1-rasm: 1-6-d Ko'hitang botanik-geografik rayonini
Surxondaryo hududida egallagan o'rni

***Rosa beggeriana* Schrenk** in Fisch. et Mey. Enum. PI. Nov. 1 (1841) 73. — Ldb. FI. Ross. 2, 1 (1843) 82. Фл. Турки. 4 (1949) 64, tab. 15. — Vved. et Pazij in FI. Uzbek. 3 (1955) 346, tab. 40, fig. in Фл. КиргССР. 7 (1957) 100. — Chrshan. Розы (1958) 440 — Fisjun in Фл. Казах. 4 (1961) 493, tab. 61, fig. 2, excl. syn. R. Silverhjelmii — Zak. Opr. rast. Сев. Тадж. (1967) 253.— Koczk. in Rast. Тадж. и ее осв. (1974) 129.— III. Беггера. Begger namatagi-shoxlari ko'kimir rangli, tikanlari yirik, o'roqsimon egilgan, asosqismi keng, sarg'ish rangli bo'lib, barg asosida juft-juft boiib joylashgan. To'pguli -ko'pgulli, qalqon yoki ro'vak. Kosachabargi butun, o'tkir uchli, gullagandan so'ng yuqoriga qarab yo'nalgan. Mevasi mayda, sharsimon, uzunligi 0,5- 1,4 mm, qizil rangli, pishgandan so'ng gulkosachasi to'kiladi. Natijada meva yuqori qismida hosil bo'lgan teshikdan ichidagi yong'oqchalari va tuklari ko'rinish turadi. Bu na'matak, asosan, O'rta Osiyo tog'larining yonbag'irlarida, tog'li tumanlarda, ariq va daryo qirg'oqlarida va yo'l yoqalarida o'sadi. Manzarali buta sifatida o'stiladi [2.3].

***Rosa bellicosa* Nevski** in Acta Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 1 ser. 4 (1937) 248, — Juz. in FI. URSS. 10 (1941) 467. — Blin. in. Фл. Туркм. 4 (1949) 67. — Vass. in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 20 (1960) 227 . Oq gulli namatak-tanasi ko'p tikanlar bilan qoplangan tik o'suvchi buta. Gullaydigan novdalariagi tikanlar bir xil uzunlikda joylashgan bo'lib uzunligi 1.3-1.9 sm, asosi esa kengaygan bo'lib kengligi 0,5-1 sm bo'lib oq sarg'ish rangda. Kurtaklari 4-5 mm bo'lib butaning tana uzunligi 1,25 metrgachaboradi. Barglari tuklar bilan qoplangan bo'lib 5-7 tadan bo'lib joylashgan. Uzunligi 7-15 mm, kengligi 4-8 mm, ovalsimon barglarining cheti tishli. Gullar och pushti (deyarli oq), yakka-yakka yoki poyada 2-3 tadan joylashgan. Gulining diametri

3,5-4 sm bo‘lib mevasi tuxumsimon. Ushbu tur Ko‘hitang tizmasida kam tarqalgan endemik tur bo‘lib. Tizmaning g’arbiy qismida Ko‘hitang qishlog‘i yaqinida hamda Surxon qo‘riqxonasida Kampirtepa va Shalqonsoylarning yuqori qismida uchraydi. Toshli, shag‘al-toshli, mayda jins tuproqli soy bo‘ylarida o‘sadi [2.3].

Rosa canina L Sp. PI. (1753) 491, s. str. — O. et B. Fedtsch. Consp. Fl. Turk. 3 (1909) 40.— Juz. in Fl. URSS. 10 (1941) 220 502, tab. 31, fig. 1. — Blin. in Фл. Турки. 4 (1949) 71. — Grig. Onp. раст. окр. Стал. (1953) 150. — Pazij et Vved. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 355, excl. syn. syn. Фл. Казах. 4 (1961) 500, tab. 62, fig. 4. in Раст. Тадж. и ee ocb. (1974) 132. — R. canina var. vulgaris C. Koch et var. collina C. Koch, Syn. (1837) 226 et 227. Itburun namatagi-bo‘yi 3 m keladigan katta buta bo‘lib, boshqalaridan gulkosachasining patsimon qirqilganligi, gullab bo‘lgandan so‘ng kosachabarglarining pastga qarab yo‘nalishi hamda meva pishishi oldidan ularning tushib ketishi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham itburun pishgan mevasining yuqori qismida teshikchalari bo‘lmaydi. Itburun O‘rta Osiyoda, Rossiyaning Yevropa qismida va Kavkazning tog‘li tumanlarida (tog‘dagi suv yoqalarida), o‘rmon chet-larida, bog‘larda, yong‘oq va archa o‘rmonlarida o‘sadi [2.3]

Rosa ecae Aitch in Journ. Linn. Soc. 18 (1880) 54.— Idem in Journ. Linn. Soc. 19 (1882) 161, tab. 8.— Crep. in Bull. Soc. Bot. Belg. 27, 2 (1888) 102. — Juz. in Fl. URSS. 10 (1941) 475. — Blin. in Фл. Турки. 4 (1949) 69. — Grig. Onp. раст. окр. Стал. (1953) 150.— Chrshan. Розы (1958) 128.— Vass. in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 20 (1960) 229. — Zak. Фл. раст. басе. Зер. 2 (1961) 206.— B. Kot. Opr. раст. Сев. Тадж. (1967) 253. — Tkacz. in Фл. КиргССР. Доп. 1 (1967) 86. Echison namatagi-balandligi 1 metrgacha bo‘lgan past buta. Zich shoxlangan bo‘lib sarg‘ish jigarrang rangda, egiluvchan, tuksiz yoki kamdan kam hollarda tuklar bilan qoplangan. Bargi novdada (5) 7-9 tadan joylashgan bo‘lib cho‘qqisi o‘tkir, bargning ostki tomoni tuksiz yiki kamdan-kam hollarda tukli. Gullari sariq, gultoj barglarining uchki tomoni yuraksimon kesilgan. Mevasi sharsimon pishganidan so‘ng qizil-jigarrang rangda bo‘ladi [2.3].

Rosa kokanica (Regel) Regel ex Juz in Fl. URSS. 10 (1941) 476. — Grig. Opr. раст. окр. Стал. (1953) 150. — Pazij et Vved. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 353, excl. syn. R. Sumneviczii. —L. Pop. in Фл. КиргССР. 7 (1957) 104. — Chrshan. Розы (1958) 99. — Vass. in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 20 (1960) 228— Fisjun in Фл. Казах. 4 (1961) 499, tab. 62, fig.3. Qo‘qon namatagi-qari shoxlari gunafsha-qo‘ng‘ir, yoshlari qizil-jiggarang po‘stloq bilan qoplangan. Tikanlari ko‘p, qattiq, tor uchburchaksimon, asos qismi kengaygan, biroz egilgan. Gullari 1-2 tadan joylashgan, sariq rangli. Kosachabarglarining uchi biroz patsimon qirqilgan, tukli, ustki qismi bezli, pishgan mevada yuqoriga qarab yo‘nalgan. Mevasi sharsimon, diametri 1,5 santimetrgacha, qo‘ng‘ir-jigarrang yoki qariyb qora rangli. O‘rta Osiyoning tog‘li hududlari (G‘arbiy Tyanshan, Pomir-Oloy tog‘lari) ning o‘rta qismigacha bo‘lgan tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

O'zbekistonning Toshkent, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi tog'li yerlarda tarqalgan [2.3].

Rosa kuhitangi Nevski in Acta Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 1 ser. 4 (1937) 248. — Juz. in FI. URSS. 10 (1941) 466. — Blin. in Фл. Турки. 4 (1949) 67. — Pazij et. Vved. in FI. Uzbek. 3 (1955) 350, in obs., pro hybr. R. h a n o t h a m n u s X R . f e d t s c h e n k o a n a . — Vass. in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 20 (1960) 227. Ko'hitang namatagi-but, past bo'yli, barg bandida barglari 5 tadan bo'lib joylashgan. Barglarining cheti tishli, poyasi tikanli. Gullari oq-pushti rangda. Bu tur O'zbekitondan tashqari qo'shni Qirg'izistonda ham uchraydi [2.3].

Rosa persica Michaut ex Juss uss.) Bornm. in Bull. Herb. Boiss. 2 ser. 6 (1906) 607.— Nevski in Acta Inst. Bot. Acad. Sci. URSS. 1 ser. 4 (1937) 249. — Juz. in FI. URSS. 10 (1941) 507. — Blin. in Фл. Турки. 4 (1949) 74.— Korotk. in FI. Uzbek. 3 (1955) 356, tab. 60, fig. 1.— Fisjun in Фл. Казах. 4 (1961) 503. — Zak. Фл. раст. басе. Зеп. 2 (1961) 208. Fors namatagi-past bo'yli buta. Bo'yi 15-50 sm bo'lib barglari oddiy, teskari tuxumsimon shaklda. Poyada novbat bilan joylashgan. Tanasi tikanli, gullari esa tillarang sariq rangda. Gulojining tubi qoramtil qizil dog'li, changchilar ko'p, to'q binafsha rangda. Gulining diametri 2,5-3,5 sm. Mevasining uzunligi 10 mm, urug'i 5 mm, to'q jigarrang rangda. Aprel-iyul oylarida gullab Iyun-avgust oylarida meva beradi. Adir, tog' yonbag'irlarida o'sadi [2.3].

Rosa transturkestanica N.F.Russanov. Transturkiston namatagi-but, poyasida joylshgan tikanlarining uchi biroz pastga qayrilgan. Bargchalari barg novdasida 5-7 tadan bo'lib joylashgan. Gulining rangi oq, bazan pushti, mevasi tuxumsimon qizil rangda. Urug'inining uzunligi 4 mm. Ushbu butaning balandligi 2-3 metrgacha boradi [2.3].

Rosa webbiana Wall. ex Royle Bge. in Beitr. Kenntn. Floi Russl. 7 (1852) 110. — Boiss. FI. Or. 2 (1872) 671, quoad pi. Lehm. — Стёп. in Bull. Soc. Bot. Belg. 13 (1874) 264.— Juz. in FI. URSS. 10 (1941) 465,— Blin. in Фл. Туркм. 4 (1949) 67. — Grig. Опр. раст. окр. Стал. (1953) 150. — Pazij et Vved. in FI, Uzbek. 3 (1955) 353. in Фл. Кирг CCP. 7 (1957) 101. Samarqand namatagi-bo'yi 1,-5 metrgacha yetadigan buta. Shershox, guli pushti, diametri 1,5-2,5 sm, changchilar ko'p. Tanasidagi tikanlari to'g'ri yo'nalgan. Iyun-iyul oylarida gullab, avgust-oktyabrda meva beradi. Mevasi qizil, etli, tuksiz yoki bezlar va tuklar bilan qoplangan. Tog' yonbag'irlarida qoya yoqalarida, daryo sohillarida o'sadi [2.3].

Shuni alohida takidlash kerakki O'zbekistonda tarqalgan 24 tur namataknning 14 tasi ilmiy tibbiyotda keng qo'llaniladi. Umuman olganda *Rosa* L. turkum turlarining barchasi vitamin va darmondorilarga boy sanaladi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, Tog'li O'rta Osiyo provintsiyasining lokal floralari, jumladan Tiyon-Shon va Pomir-Oloy floralari *Rosa* L. turlariga boyligi bilan

ajralib turadi. Bu esa turkumga mansub bo'lgan turlarning yangi populyatsiyalarini o'rganish muhimligini ko'rsatadi.



Rosa beggeriana



Rosa canina



Rosa ecae



Rosa kokanica



Rosa kuhitangi



Rosa persika



Rosa transTurkestanica



Rosa webbiana

2-rasm: Ko'hitang botanik geografik rayyonida tarqalgan *Rosa L.* turlarining foto suratlar. (rasmlar <https://www.plantarum.ru/> internet saytidan olindi)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Определитель растений Средней Азии. Т.5. Ташкент Фан, 1976.
2. Flora Uzbekistana. том 3. – Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1955.
3. Флора Туркмении. В 7-и т. – Ашхабад: Изд. АН Туркм. ССР, 1949.
4. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2022-7/1. С-52 Ибрагимов А.Ж., Каримов Б.К., Атоев К.Ў., Пардайев А.С., Тажетдинова Д.М. TASH фондидаги Кўхитанг ботаник-географик районига оид гербарий намуналарининг таҳлили (Asteraceae оиласи мисолида)
5. Невский С.А. Материалы к флоре Кугитанга и его предгорий // Труды БИН АН СССР. – 1937. Вып. 4. – С. 199-346.
6. Хасанов Ф.О. Ксерофилная древесно-кустарниковая растительность Кугитанг-тау: Автореф. дис... канд. биол. наук. – Ташкент, 1987.– 20 с.
7. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника (хребет Кугитанг): Автореф. Дис канд. биол. наук. – Ташкент, 2010.– 22 с.

8. Ибрагимов А.Ж. Эндемизм флоры хребта Кугитанг // Биоразнообразие: проблемы и перспективы сохранения: Материалы межд. науч. конф. 13-16 мая 2008 г. – Пенза, 2008. – С. 217-219.

9. Закиров К.З. К проблеме зональности и терминологии ботанической географии в Средней Азии. Высотные пояса долины Зеравшана– Ташкент, Бюллетень САГУ, 1947. Вып 25.– С. 25-30.

Foydalangan internet saytlari:

1. <https://powo.science.kew.org/>
2. <https://www.plantarum.ru/>
3. <http://www.theplantlist.org/>
4. <http://redbook.uz/uz/site/plant-view?id=145>
5. https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_rc_4744780/